

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI  
KASB TA'LIMI FAKULTETI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
KAFEDRASI**



**“MAXSUS EFFEKTLAR KOMPYUTER GRAFIKASI VA DIZAYN”  
FANIDAN**

# Referat

**Mavzu: Videolarni montaj qilishda Adobe After Effect dasturidan  
foydalanish.**

Baj ardi: KGD 401 -guruh talabasi

Tangirov Abdurasul

Eshmamat o'g'li

Rahbar: Kasb ta'limi fakulteti “AT”

kafedra o'qituvchisi

Bakiyeva Zuhra

**TOSHKENT -2016**

## **MUNDARIJA**

### **Kirish**

1.1. Multimediali texnologiyalar va ular bilan ishlash

1.2. Adobe After Effect dasturi oynasining tuzulishi

2.1. Adobe After Effect bilan ishlovchi yordamchi dasturlar

2.2. Rasmlarni mantaj qilish va uni o'zgartirish

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda rivojlanishning yangi yuqori bosqichiga ko'tarildi. Shu borada zamonaviy kompyuter texnologiyasining ishlab chiqarishga, iqtisodga, biznesga, va o'qitish jarayonida tatbig'i tobora kengaydi. Har bir inson o'z mehnat faoliyatida kompyuterlardan unumli foydalana bilishi zarur bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar hayotiga oid eng muhim ustuvor yo'nalishlar "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi sifatida belgilab berildi. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash ushbu konsepsiyada asosiy yo'nalishlardan biri sifatida kiritilgan bo'lib, bu to'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari, shu jumladan radio-televideniya va Internetning bugungi kunda fuqarolik jamiyatini qurish va chuqur islohotlarni amalga oshirish jarayonida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol namunasidir.


Hozirgi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda multimediali texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga katta zamin yaratadi. Jumladan, talabalarni olgan bilimlarini mustahkamlashlarida yaratilayotgan multimediali darslar, video va audio kurslar o'z natijasini bermoqda. Bunday videokurslarni yaratish sodda ko'rinishdagi amaliy dasturiy ta'minotlar asosiga ko'ra yaratilmoqda.


Kompyuter grafikasining yangi yo'nalishlaridan biri haqiqiy tasvirlarni shakllantirishning uslub va tamoyillarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bu tamoyillarga ko'ra tasvirlarni bevosita kuzatish yoki optik qurilmalar yordamida ro'yxatga olish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Shunday tasvirlarga ehtiyoj dizayn, arxitektura, reklama va boshqa sohalarda paydo bo'ldi. Kompyuterlar funksional imkoniyatlarining kengayishi kompyuter grafikasining rivojlanishiga

asos yaratdi va tasvirlar animatsiyasini ta'minlovchi tizimlar yaratilishiga olib keldi.

## **I-BOB. ADOBE AFTER EFFECT DASTURI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.**

### **1.1. Multimediali texnologiyalar va ular bilan ishlash.**





**Adobe After Effects** - Adobe Systems kompaniyasi mahsuloti bo'lib, dinamik tasvirlarni, videolarni tahrirlash, montaj qilish, kompozitsiya yaratish, muharrirlash, animatsion montajlar qilish, maxsus effektlar yaratish, video roliklarni rangi, yorqinligini mo'tadillashtirish va shunga o'xshash Ilyuzion video roliklarni yaratish imkoniyatlariga ega bo'lgan dastur hisoblanadi.

After Effects dasturini ancha keng tarqalgan Photoshop dasturi bilan qiyoslashadi. After Effects - bu dinamik tasvirlar uchun Photoshop. Ammo After Effects dasturi Photoshopga o'xshash bo'lsada, unga qaraganda ancha yaxshi va keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Photoshop statik tasvirlar ustida ishlaydigan kuchli vositalardan hisoblansa, After Effects dinamik tasvirlar (kino, roliklar, videokliplar) bilan ishlash imkonini beradi.

Adobe After Effects dasturi turli media formatlarni qo'llay olishi foydalanuvchiga ko'p qulayliklarni taqdim etadi. Misol uchun psd (photoshop formati), jpeg, bmp, mp3, wav, avi, flv va boshqa 3D dasturlar formatlarini ham qo'llay olishi natijasida, bu dasturni boshqa dasturlar bilan birgalikda ishlay olishini aytish mumkin.

Hozirda bu dastur yordamida kliplar, animatsiyalar, reklama roliklari,

televideniya teleko'rsatuvlar, kinolar, prezentasiyalar ishlanmoqda. After Effects dasturi media trekli dastur hisoblanadi. Unda ham Adobe Photoshop kabi bir necha qatlamlar bilan ishlash mumkin. Bu qatlamlar turli rasm, musiqa, video, animatsiya, matn ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, musiqasiz biror rolikni, videoni, kinoni tasavvur qilish qiyin. Har qanday professional studiya mehnat faoliyatida albatta biror musiqadan foydalaniladi.

After Effects musiqiy fayllarni muharrir qilmasada, lekin, video tasvir musiqasini ayni tasvir voqeligiga moslashtiradi. Misol uchun, videorolikda biror metal jismning urilishi tasvirlangan harakat bo'lsa, ana shu metal tovushlarini After Effects dasturida lahzama-lahza harakat voqeylikka moslashtirish imkonini beradi.

After Effects dasturida poligrafiya, raqamli fotografiya, raqamli video va audio, 3D-animatsiyalar uchun materiallar yaratish mumkin. Dasturda har qanday elementlar uchun effektlar yaratish, tahrirlash, joy-joyiga qo'yish va animatsiyalash mumkin. Shu sababli After Effects - ko'p maqsadli dasturiy mahsulot hisoblanadi. Poligrafiya va dizaynni jonlantirish, fotosurat yoki raqamli tasvirni qayta ishlash, video va filmlar ishlab chiqishda vizual effektlardan foydalanish, instrumental vositalar imkoniyatini kengaytirish kabi yo'nalishlar bo'yicha keng qamrovli foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

**After Effects** keng doiradagi raqamli vositalarni qamrab olgan, shuning uchun Adobe uskunalari to'plami sifatida Adobe Pinnacle, Adobe Premiere Pro Adobe Audition va Flash dasturlari bilan birga ushbu dasturdan foydalanishni ko'zda tutadi. Vaqt o'tishi bilan faylni bir dasturdan boshqasiga oraliq qadamlarsiz, va qayta ishlanadigan tasvir elementlarini yo'qotishlarsiz olib o'tish osonlashdi. Dasturlarning ishchi oynasi o'xshash bo'lsada, ammo ishlash yo'llari farq qilishi mumkin.

Video materiallarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan boshqa dasturlar singari After Effects dasturi ham kompyuterning apparat va dasturiy ta'minotiga talablar qo'yadi. After Effects dasturi bilan normal ishlash uchun kompyuter quyidagi

minimal talablarga javob berishi kerak:

- Intel Pentium 4 prosessori (ko'p prosessorli tizim tavsiya etiladi).
- Microsoft Windows XR Service Pack 2 (SP2) Pro yoki Home Edition operasion tizimi.
- 1 Gbaytdan kam bo'lmagan tezkor xotira.
- Dasturni o'rnatish uchun qattiq diskdan minimum 3 Gbayt bo'sh joy va ishchi fayllarni saqlash uchun qo'shimcha xotira maydoni kerak bo'ladi.
- 32 va undan yuqori bitni quvvatlovchi rangli monitor.

Quyida keltiriladigan xususiyatlar shartli hisoblanmasada, ular After Effects bilan ishlashni anchagina samarali ko'rinishga olib keladi.

**Multiprosessorli tizimlar** - tizim hisoblashlami qancha tez amalga oshirsa, animatsiyalar uchun shunchalik tez kadrlar yaratiladi.

**Qo'shimcha TXQ (OZU)** - biz ko'rishimiz mumkin bo'lgan kadrlar soni va tasvir hajmi bevosita tezkor xotira o'lchamiga bog'liq.

**Katta hajmli qattiq disk** - yuqori sifatli katta fayllar bilan ishlash va uzoq davom etadigan animatsiyalarni yaratish imkonini beradi. Siqilmagan to'liq ekranli uch o'lchovli video, videomaterialning har bir sekundiga taxminan 30 Mbayt atrofida joy egallaydi.

**Katta monitor yoki bir necha monitorlar** - After Effects keng ekran bo'shlig'ini talab etadi.

### **Adobe After Effects dasturining imkoniyatlari**

After Effects dasturi imkoniyatlaridan eng muhimlari quyidagi keltirilgan:

**Mukammallashtirilgan foydalanuvchi interfeysi** - After Effects dasturini Adobe kompaniyasining videofragmentlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan boshqa dasturlari bilan solishtirganda, interfeys va palitralardan foydalanish ancha qulay. Yangi interfeys ekran bo'shlig'idan samarali foydalanishni ta'minlaydi vafoydalanuvchi ishini osonlashtiradi. Dasturda ma'lum sinfdagi vazifalarni bajarish uchun o'rnatilgan ishchi maydonlar orasida o'tish mumkin.

**Animatsiyalarning yaxshilangan paradigmasi** - After Effects dasturi

qatlamlarni animatsiyalash nuqta-nazaridan bir qancha afzalliklarga ega, jumladan **Graph Editor** (Grafik muharrir) sohasini keltirish mumkin. **Graph Editor** montaj stolida grafika xossalarini sozlash imkonini beradi. Ushbu soha qatlam xususiyatini ko'rishning qulay va samarali usulini taqdim etadi va animatsiyalarni sozlashni osonlashtiradi.

**Kengaytirilgan eksport** - Windows operasion tizimi uchun After Effects dasturi Adobe Media Encoder mexanizmini taqdim etadiki, u **AVI, FLV, H.264, H.264 Blu-Ray, MPEG2, MPEG2 Blu-Ray, MPEG2-DVD, MPEG4** formatlaridagi fayllarni eksport qilishni osonlashtiradi

Multimediali texnologiya (multi - ko'p, media - muhit) bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi.

Multimediali ma'lumotlar: matnli, grafikli, jadvalli, animatsiyali, videotasvirli, audeotasvirli va ovozli ko'rinishlarda bo'ladi.

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaolik - axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olish qodirligi hisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: videofilmlarni montaj qilish, ensiklopediyalar, o'rgatuvchi videokurslar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar.

Kompyuter taqdimotlari (Kompyuter vositasida montaj qiluvchi dasturlar). Dars jarayonida ma'ruza, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko'rgazmali namoyish etish vositasi sifatida plakatlar, qo'llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimediali videoproektorning paydo bo'lishi ma'ruzachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo'rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali video materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon beradi.

Kompyuter grafikasi o'zoq yillar davomida vujudga kelib, 1960 yillarda ham to'laqonli grafik tizimlar mavjud bo'lgan. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi (KG)



va kompyuter animatsiyasi (KA) atamalaridan foydalaniladi. Kompyuter grafikasi tushunchasi statik tasvirlar bilan ishlashning barcha ko'rinishlarini o'z ichiga olsa kompyuter animatsiyasi dinamik o'zgaruvchi tasvirlar bilan ishlaydi.

Kompyuter grafikasi - bu kompyuter boshqaruvida grafik ob'ektlarni kiritish, chiqarish, tasvirlash, o'zgartirish va tahrirlashdir. Shuning bilan birga, informatikaning mahsus qismi bo'lib, dasturiy-apparat hisoblash komplekslari yordamida tasvirlarni yaratish, montaj qilish va qayta ishlash usullari va vositalarini o'rganadi.

Kompyuter grafikasi - televideniya videofayllarni montaj qilish jarayonini o'rgatuvchi videokurs yaratish jarayonida xam keng qo'llanilad. Videofayllarni yaratishda vektorli va rastarli usullaridan foydalaniladi. Hozirgi kunga kelib kompyuter grafikasi va animatsiyasi vositalari kirib bormagan sohani topish qiyin. Kompyuter grafikasi va animatsiyasi vositalarini qo'llanish sohasiga ko'ra quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

- poligrafiya ishlari uchun mo'ljallangan kompyuter grafikasi dasturlari;
- ikki o'lchamli rang tasvir kompyuter grafikasi;
- taqdimot ishlari uchun mo'ljallangan dasturlar;
- ikki o'lchamli animatsiya dasturlari;
- uch o'lchamli animatsiya dasturlari;
- ikki o'lchamli va uch o'lchamli animatsiya dasturlari;
- videotasvirlarni qayta ishlovchi komplekslar;
- ilmiy vizuallashtirish ishlarini bajaruvchi dasturlar.

Kompyuter grafikasi va animatsiyasi dasturlari rassom va dizaynerlar, poligrafchi va kinematografchilar, kompyuter o'yinlari va o'qitish dasturlari yaratuvchilari, klipmeyker va olimlar, videofilmlarni montaj qiluvchilar shuningdek o'z faoliyatida turli formatdagi tasvirlardan foydalanuvchi barcha mutaxassislarda ham katta qiziqish uyg'otdi.

Yaqin-yaqin vaqtlargacha odatdagi uy kompyuteri yordamida nafaqat sevimli filmlarni korish, balki shaxsiy video lavhalarini yaratish, eski video kassetalar

ichidagilarni raqamli ko'rinishga keltirish, oilaviy video yozuvlarni tahrirlash va hattoki o'zining kinofilmlarini yaratishni ko'pchilik tasavvur qila olmas edi.

Bularning barchasi IBM va Intel firmalari Indeo (Intel Video ning qisqartmasi) dasturiy texnologiyasini 1992 yilda ishlab chiqqishidan boshlandi. Uning yordamida foydalanuvchilarga videoni raqamli ko'rinishga keltirish va ShKda videofayllar yaratish imkoniyati tug'ildiki, keyinchalik ularni monitor ekranida chiqaradi.

Dastlab raqamli video o'zida analog signalni raqamli formatga o'zgartirishni tashkil etdi. Bu holda, o'zgartirish prosedurasining o'zi muqarrar bo'lgan ba'zi sifat buzilishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib videomagnitafonlar va eskirgan VHS-kamerlar o'tmishda qoldi, zamonaviy raqamli videokameralar, DVD va Blu-Ray pleerlar yuzaga keldi va takomillashib bormoqdaki, signalni birdan raqamli ko'rinishda olish imkonini beradi. Analogli TV asta-sekin o'z o'mini ilg'or raqamli TV ga bo'shatib beradi.

### **Raqamli videoning asosiy tavsiflari**

Raqamli video beshta asosiy xususiyatlarga ega: ekran o'lchami, kadrlar chastotasi, rang chuqurligi, bitreyt (video oqim kengligi) va tasvir sifati.

***Ekran o'lchami (Resolution)*** - ekranda tarkib topgan tasvirning (video kadr) gorizontali va vertikal bo'yicha nuqtalar (piksel) sonini bildiradi. Yozishdan oldin o'lchamni dastlab qatorda nuqtalar sonining qiymati (gorizontali o'lcham), songra tasvirlarni qo'rishda ishtirok etuvchi qatorlar soni (vertikal o'lcham) ko'rsatiladi. Masalan, PAL evropa videostandarti uchun kadr o'lchami 720x576 pikselni tashkil etadi, shimoliy Amerika standarti NTSC uchun 720x480, yuqori aniqlikdagi video uchun (HD 720p) - 1280x720, yangi urfdagi standart HDTV (Full HD) uchun - 1920x1080 nuqta. Bundan ko'rinib turibdiki, ekran o'lchami qanchalik yuqori bo'lsa, video sifati shuncha yaxshi bo'ladi.

***Kadrlar chastotasi*** - sekundiga qancha sondagi kadrlar almashinuvini ko'rsatuvchi qiymat. Videosignalni chiqarishning standart tezligi 30 kadr/sekund qiymatiga teng deb qabul qilinadi. Kino uchun bu ko'rsatkich bir oz past bo'ladi va 24 kadr/sekundni tashkil etadi.

**Rang chuqurligi (rang o'Ichami)** - video tasvirlarni shakllantirishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan ranglar sonini ko'rsatuvchi xususiyat. Raqamli videoda ranglar soni bitlarda o'lchanadi. Bir bit mos ravishda ikki xil qiymatni (0 yoki 1) qabul qilish mumkin va faqat ikkita rangni mos ravishda kodlash (odatda qora va oq) imkonini beradi. Ikkita bit yordamida 4 rangni ( $2^2 = 4$ ), uchta bit yordamida 8 rangni ( $2^3$ ), to'rtta bit yordamida 16 ( $2^4$ ) kodlash mumkin va hokazo.

Odatda, rang o'lchamlari maxsus rang modellari yordamida tavsiflanadi. Kompyuter texnologiyasida RGB modeli qo'llaniladiki, rang chuqurligining quyidagi ancha keng tarqalgan rejimlarda ko'rsatilishi mumkin: 8 bit (256 ranglar), 16 bit (65536 ranglar) va 24 bit (16777216 ranglar). Turli fikrlarga ko'ra, inson ko'zi 5 dan 10 milliongacha rang tuslarini qabul qilish mumkin.

**Bitreyt (video oqim kengligi)** - vaqtning bir sekundiga video axborotlarning qayta ishlanadigan bitlari sonini ko'rsatadi. Boshqa so'z bilan aytganda - bu sekundiga megabitlarda (Mbit/s) o'lchanadigan video oqim tezligi hisoblanadi. U qancha yuqori bo'lsa, sifat shuncha yaxshi bo'ladi. Misol uchun, DVD-video standart uchun oqim kengligi 5 Mbit/s atrofida, yuqori aniqlikdagi HDTV-televidenie formati uchun 10 Mbit/s ni tashkil etadi. Bitreytning eng ko'p qiymati Internet orqali uzatiladigan video sifatini baholash uchun ishlatiladi.


**Tasvir sifati** - asl nusxa bilan solishtirganda qayta ishlangan video sifati xususiyatlarini baholash uchun mo'ljallangan va hal etish, rang chuqurligi va tezligi oqim qiymatlari bir majmuini belgilaydi.

### ***1.2 Adobe After Effect dasturi oynasining tuzulishi.***

Ushbu mavzuda Adobe After Effects dasturi interfeysining o'ziga xos xususiyatlarini qisqacha tavsifini keltirib o'tamiz. Dasturning eng muhim tarkibiy qismlari - **Project** (Loyiha), **Timeline** (Montaj), **Composition** (Kompozitsiya) hisoblanadi.

After Effects dasturi ishga tushirilgandan so'ng ekranga yangi loyiha oynasi ochiladi. Dastur ilovasining asosiy oynasi o'zida tegishli vazifalarni bajarishga

yo'naltirilgan bir qancha qism oynalaridan tashkil topgan bo'lib, ulaming



*1.2-rasm. Adobe After Effects dasturining umumiy ko'rinishi*

Ushbu tasvirda dastur interfeysi beshta qismga ajratib ko'rsatilgan:

1. Project va Effect Controls oynasi.
2. Composition, Layer va Footage oynasi.
3. Effektlar va shrift parametrlari oynasi.
4. Qatlamlar oynasi.
5. Timeline oynasi.

Dasturning asosiy menyulari: File, Edit, Composition, Layer, Effect, Animation, View, Window, Help.

1. File - fayl menyusi yangi projekt yaratish, oldindan saqlab qo'yilgan projektни ochish, ishlangan projektlarni saqlash, fayllarni Import qilish, tayyor mahsulotni Export qilish imkonini beradi.

2. Edit - tahrir qilish menyusi. Unda nusxa yaratish, qatlamdagi faylni o'chirish, undan nusxa olish mumkin.

3. Composition - yangi kompozitsiya yaratish, kompozitsiya parametrlarini sozlash imkoniyatini beradi.

4. Layer - qatlamlar bilan ishlovchi menyu hisoblanadi. Bu yerda Solid, Text, Camera, Adjustment Layer bilan ishlash mumkin. Bundan tashqari ayrim parametrlarni sozlash ham mumkin.


5. Effect - eng kerakli menyu bo'lib, unda barcha bizga kerakli bo'lgan effektlar to'plami mavjud.

6. Animation - animatsiya menyusi bo'lib, u animatsiya bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshiradi.

7. View - bu menyu kompozitsiya oynasidagi tasvir qanday ko'rinishda bo'lishini belgilab beradi. Mazkur menyu orqali tasvirni bizga kerakli holatga keltirishimiz mumkin, ya'ni tasvirni kattalashtirish, kichiklashtirish.

8. Window - "Oyna" deb nomlanuvchi bu menyu bizga katta qulayliklarni yaratib beradi. Bu yerdan bizga kerakli oynalarni ochishimiz va keraksiz oynalarni yopib qo'yishimiz mumkin.

9. Help - "Yordam" menyusi. Bu menyu Adobe After Effects dasturi haqida ma'lumotlar kiritilgan. Qolaversa, bizda paydo bo'ladigan ba'zi savollarga yerdan javob olishimiz mumkin.



*1.5- rasm Go To Time (Pereyti k kadru) muloqot darchasi*

### **1.3 Adobe After Effect dasturi uskunalari bilan tanishish**

Bugungi kunda yaratilayotgan video va audio fayllarni montaj qilish uchun yuzdan ortiq dasturiy ta'minotlar mavjud. Videofilmlarni yaratish murakkab bir jarayon bo'lsa, ularni montaj qilish undanda katta mehnat talab qiladi. Yaratilgan videofayllar hajmi boshlang'iya jarayonda oshib ketadi va uni keraksiz qismi qirqib tashlanadi va montaj qilinadi. Videofilm va musiqali fayllarni montaj qilish uchun bir nechta dasturlar mavjud. Ulardan boshlovchilar uchun sodda bo'lgan Windows Movie Maker dasturini keltirish mumkin. Ko'p hollarda videofilmlarni montaj qilish studiyalarda amalga oshiriladi. Lekin, shunday dasturlar mavjudki ulardan mustaqil shaklida xam foydalanish va mantaj qilish mumkin.

Kino san'atining muvaffaqiyatli odimlari montaj usullarini takomillashuvi bilan boshlanadi. Bu kino vujudga kelgan dastlabki davrlarda kino xodimlariga ma'lum emas edi. Kino suratga olish kameralari kashfiyotchilari dastlab o'z uskunalari qulay joyga o'rnatib olib ko'zlariga nima qiziqroq tuyulsa o'shalarni lentalariga muhrlayverganlar. Ular korxonalariga to'p-to'p bo'lib kirib ketayotgan ishchilar, yaqinlashib kelayotgan poezd, ovqatlanayotgan bolalar voqealarini birin-ketin suratga olaverganlar.

Aynan harakatni montaj orqali ulab yuborish plandan-planga sezdirmasdan "silliq" o'tish imkonini yaratadi.

Montajning asosiy o'ziga xos ta'sirini yodda tutish lozim. Eng avvalo, bu

xususiyat uning ritmiklik xususiyatida o'z aksini topgan.

Montaj - bu ritm. Ammo kinofilmning ritmi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uni filmning asosiy mohiyati, ssenariysini amalga oshirilishi va rejissyorlik talqini bilan bog'liqligini belgilash zarur.


Harakatning uzluksizligini ta'minlash maqsadida kadrlar bilinmaydigan qilib yelimlanadi. Dunyoni kinematografik anglash, uning ekrandagi obrazi o'zgardi, lekin montaj tamoyili saqlanib qoladi.

Kam shartlilik bilan to'g'ridan-to'g'ri hikoya qilish, voqealikni bevosita aks ettirishga yo'naltirilgan neorealizimni kashf etilishi montajning roliga bo'lgan munosabatni birmuncha o'zgartirib yuborgandek bo'ldi. Ko'pchilik nazariyotchilar buni montajni rad etilishi sifatida qabul qiladilar. Kartinalarning montaj tuzilishida rang-barang uslublarning almashinib turishiga qaramasdan kadrlarni montaj qilishining o'nta yo'nalishi aniq ko'zga tashlanadi. Filmni suratga olish va uzluksiz ravishda davom etadigan bir sahna ichida qo'shni kadrlarni o'zaro bog'lash chog'ida yuqrida aytilgan o'nta tamoyilga amal qilish zarur. Rejissyor ulangan qismlarni bilinmaydigan bo'lishiga, harakatlar o'zaro uzviylashib ketishiga va sahnani tomoshabin oson idrok etishiga intilishi kerak bo'ladi. Shundagina rejissyor sahna mazmuni va mohiyatini tomoshabinga osonroq yetkazib bera oladi. «Yirik montaj» kadrlar montajiga tegishli o'nta usullarning birinchisi hisoblanadi. Bu usul asarning uzluksiz davom etadigan bir sahna ichida ketma-ket keluvchi qo'shni kadrlardagi u yoki bu ob'ektni suratga olishda yo'l qo'yiladigan va qo'yilmaydigan o'zgarishlarni belgilaydi. Ikkinchi o'rta plan va birinchi o'rta planlarda inson qanday idrok etilishini tassavur qilishi keltirilgan. U yaxshi yoki yomon ko'rinadimi? Kadrdan-kadrga o'tishni tomoshabin uchun bilinmaydigan qilish asosiy vazifa ekanligini unutmaslik kerak. Bunda ikkinchi o'rta plan umumiy plan bilan muvofiqlashuvini ko'rasiz.

Makonda mo'ljal bo'yicha ikki kadrlarni montaj qilish usuli o'ziga xos yo'lni ko'rsatadi. O'zaro bog'liq bo'lgan ikki ob'ektni suratga olish ularning o'zaro bog'lab turgan chiziqning bir tomonida amalga oshirilishi zarur.



Videomontajni asosiy vazifalaridan biri olingan kadrlarni keraksiz qismini kesib tashlash va o'tish joylarini bir-biriga moslab biriktirish vazifalarini bajaradi. **Adobe After Effect dasturi uskunalari bilan tanishib chiqamiz** Adobe After Effect dasturining uskunalar paneli bilan tanishib chiqamiz.



***Dasturning bosh menyu qismi.***


Bunda File bo'limi quyidagi buyruqlardan iborat (-rasm). Bunda kerakli buyruqlar (yangi ishchi oyna ochish, yangi ob'ektni ochish yopish, saqlash va h.k) yordamida masalalar bajarilishi amalga oshiriladi

1. *File* - fayl menyusi yangi projekt yaratish, oldindan saqlab qo'yilgan projektning ochish, ishlangan projektlarni saqlash, fayllarni Import qilish, tayyor mahsulotni

Export qilish  
imkonini beradi.

File Edit Composition	Layer Effect Animation	View Window Help
New		
Open Project...	Ctrl ++ O	
Open Recent Projects		
Browse in Bridge...	Ctrl -i-Alt- -> Shift-i- O	
Close	Ctrl ->-W	
Close Project		
Save	Ctrl +S	
Save As		
Increment and Save	Ctrl-^Alt-^ Shift-^ -S	
Revert		
Import		
Import Recent Footage		
Export		
Adobe Dynamic Link ► Go to Adobe Story...		
Find!	Ctrl- ->-F	
	Ctrl +/-	
Add Footage to Comp New		
Comp from Selectio		
Consolidate All Footage		
Remove Unused Footage		
Reduce Project		
Collect Files...		
Watch Folder...		
Seripts		
Create Proxy		
Set Proxy		
Interpret Footage		
Replace Footage		
Reload Footage	CtrlAlt- ->-L	
Reveal in Explorer		
Reveal in Bridge		
		Project Settings... Ctrl-^ - Alt-^ - Shft- ->- K
		Exit Ctrl -t-Q

2. *Edit* - tahrir qilish menyusi. Unda nusxa yaratish, qatlamdagi faylni o'chirish. undan nusxa olish mumkin.



3. *Composition* - yangi kompozitsiya yaratish, kompozitsiya parametrlarini sozlash imkoniyatini beradi.


Composition Layer	Effect Animation
Ca n' t U n d o	Ctrl -+- Z
Ca n' t R e d o	Ctrl Shift
History	▶
Cu t	Ctrl -+- X
Copv	Ctrl C
Copy Expression Only	
P a s t e	Ctrl -+- V
Cl e a r	D e l e t e
Du p- l i c a t e	Ctrl -+- D
Spi r t L a y e r	Ctrl + Sh
L i f t W o r k A r e a	ift-i- D
Ex t r a c t W o r k A r e a	
S e l e c t A l l	Ctrl -+- A
D e s e l e c t A l l	Ctrl + Sh
	itt-i- A.
L a b e l	▶
P u r g e	▶
E d i t O r i g i n a l . . .	Ctrl -+- E
E d i t i n A d o b e A u d i t i o n	
T e m p l a t e s	▶
P r e f e r e n c e s	▶
P a s t e m o c h a m a s k :	

4. *Layer* - qatlamlar bilan ishlovchi menyu hisoblanadi. Bu yerda Solid, Text.

Camera, Adjustment Layer bilan ishlash mumkin. Bundan tashqari ayrim parametrlarni sozlash ham mumkin.



5. *Effect* - eng kerakli menyu bo'lib, unda barcha bizga kerakli bo'lgan effektlar to'plami mavjud.



6. *Animation* - animatsiya menyusi bo'lib, u animatsiya bilan bog'liq bo'lgan


ishlami amalga oshiradi.




7. *View* - bu menyu kompozitsiya oynasidagi tasvir qanday ko'inishda bo'lishini belgilab beradi. Mazkur menyu orqali tasvirni bizga kerakli holatga keltirishimiz mumkin, ya'ni tasvirni kattalashtirish, kichiklashtirish.



8. *Window* - “Oyna” deb nomlanuvchi bu menyu bizga katta qulayliklarni yaratib beradi. Bu yerdan bizga kerakli oynalarni ochishimiz va keraksiz oynalarni yopib qo'yishimiz mumkin.



9. *Help* - “Yordam” menyusi. Bu menyu Adobe After Effects dasturi haqida ma'lumotlar kiritilgan. Qolaversa, bizda paydo bo'ladigan ba'zi savollarga shu yerdan javob olishimiz mumkin



## II-BOB. VIDEOLARNI MANTAJ QILISHDA ADOBE AFTER EFFECT DASTURIDAN FOYDALANISH.

### 2.1. Adobe After Effect bilan ishlovchi yordamchi dasturlar.

#### Pinnacle dasturida video fayllar bilan ishlash

Boshqa ko'plab professional paketlar bilan solishtirganda, Pinnacle Studio dasturida ishlash qulay va interfeysi oson. Pinnacle Studioning menyulari oson va oddiy. Men birinchi bu dasturni ishlatishda qiynalmadim uni tezda o'rganib oldim. Bu dasturning yana bir afzalligi uni internetdan olib bimalol o'rnatib ishlatishimiz



Pinnacle Studio 14 o'rnatib bo'lganizdan keyin uni ishga tushirganizda bu oyna ochiladi.



mumkin.

Загрузка -4 %

©1998-2003 Pinnacle Systems, Inc. Все права защищены. Версия "14.0"

Dasturni ishga tushirish birinchi marta o'rganib ko'rish va model loyihasini ochish taklif etadi. Siz birinchi marta bunday dastur foydalanayotgan bo'lsangiz, darsliklar ko'p yordam bemas edi, lekin loyiha - butunlay boshqa masala. Pinnacle studiyasi loyihasini yuklab keyin, siz, barcha bu video kliplarni olib namoyish va loyiha qurish imkonini ko'rib, siz tahrir qilishiz mumkin bo'ladi.

## **Adobe Premier Pro dasturi**


Adobe Premiere Pro - professional chiziqli bo'lmagan tadbirlar uchun dastur. Adobe Premiere Pro dasturi Adobe kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. Adobe Premiere dasturi oxirgi chop versiya 6,5 edi. Dasturning birinchi versiyasi Windows operatsion tizimlari uchun 2003 yil 21 avgustdagi chop u «Adobe Premiere» 7 etilgan. Dasturning uchinchi versiyasi boshlab birinchi versiyasi, ikki alohida mahsulot bo'lib chiqdi operatsion tizimi OS X uchun ham Adobe Premiere Pro dasturini qilishdi, uchinchi versiyasi beshinchi versiyasi bilan boshlab to'plami Adobe Creative Suite 3. qismi sifatida chop etildi, faqat 64-bit operatsion tizimini qo'llab-quvvatlash uchun esa to'rtinchi versiyasi mo'ljallangan. Bundan tashqari, 32-oz. Premiere Pro kabi Bi-bi-si kabi kompaniyalar tomonidan ishlatiladi. individual mahsulotlari, uchinchi versiyasi, faqat 64 - bit operatsion tizimini qo'llab-quvvatlaydi beshinchi versiyasi bilan boshlab to'plami Adobe Creative Suite 3. qismi sifatida ozod etildi 32 -bit ham mo'ljallangan foydalanish to'rtinchi versiyasi . Premiere Pro kabi Bi- bi -si kabi kompaniyalar tomonidan ishlatiladi Tonight Show. Bu, masalan, "Ijtimoiy tarmoq" deb, xususan, ko'plab filmlar o'rnatish amalga oshirildi " g'alaba qozonish uchun chang orqali ", " Kapitan Abu Balawi " Deadpool File Format tabiatni muhofaza qilish loyihalari ish .prproj Adobe Premiere 6,5 video bilan professional ish bozorida eng katta dastur edi. Adobe uzoq yangilash chop etdi, ammo keyin yangi useri yangi mahsulot bor edi: Adobe Premiere Pro.

Premiere Pro RGB kabi, yuqori sifatli video 4K x 4K qaror va 32-bit rang bilan yuqori tahrir qo'llab-quvvatlaydi, va YUV rang kosmik. Tahrir audio namunalari, VST audiopluginov (plagini) va qo'llab-quvvatlash 5.1 surround izlar. Arxitektura Premiere Pro plagini Agar eksport materiallari QuickTime idishlar yoki DirectShow import va imkon beradi, shuningdek MacOS va Windows video va audio formatdagi katta miqdordagi uchun yordam beradi.


### **Adobe Premier Pro dasturi va u bilan ishlashi.**

Adobe Premiere Pro - videoni tahrirlash uchun professional vosita hisoblanadi. Bu dastur DV formatidan to zichlanmagan HD gacha bo'lgan barcha video formatlarni qabul qila oladi. Adobe Premiere Pro boshqa Adobe dasturlari

bilan to'liq bog'lana oladi.



Natijada New Sequence oynasi hosil bo'ladi. Sequence Presets bo'limidan DV-PAL ni tanlaymiz. Bu papkadan Widescreen 48 kHz ni belgilaymiz. Chiquvchi faylga nom berib, "OK" tugmasini bosamiz





### **Foydalangan adabiyotlar.**

<http://www.render.ru>: Sayt rovuuyacepp^1y 3D-grafike

<http://3DTutorials.ru>: Portal posuyaceppny izucheniyy 3D Studio Max

<http://3dmir.ru>: Vsy kompyuternaya grafika -3dsmax, photoshop,

<http://3dcenter.ru>: Galerei/Uroki. <http://www.desk.uz>